



GRIPP KASALLIGI TASNIFI, ETIOLOGIYASI, KLINIK KECHISHI VA DAVOLASH

G'allaorol Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

o'qituvchisi

Raxmatullayeva Dilrux Ilhomovna

Annotatsiya. Gripp - o'tkir respirator virusli infeksiya bo'lib, aholi orasida keng tarqalgan va mavsumiy epidemiyalar bilan kechadi. Ushbu maqolada gripp kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, tashxislash usullari, davolash tamoyillari hamda oldini olish choralari yoritilgan. Gripp virusi yuqori yuqumli bo'lib, ayniqsa bolalar, keksalar, homilador ayollar va surunkali kasalligi bo'lgan shaxslarda asoratlar rivojlanish xavfi yuqori. Maqolada zamonaviy antiviral preparatlar, simptomatik davolash va vaktsinatsiyaning ahamiyati tahlil qilingan. Grippni erta aniqlash va to'g'ri davolash kasallik oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gripp, influenza virusi, respirator infeksiya, epidemiya, klinik belgilar, tashxis, davolash, profilaktika, vaktsinatsiya.

Annotation. Influenza is an acute respiratory viral infection that is widespread among the population and is characterized by seasonal epidemics. This article discusses the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic methods, principles of treatment, and preventive measures of influenza. The influenza virus is highly contagious, and the risk of complications is especially high in children, the elderly, pregnant women, and patients with chronic diseases. The article analyzes modern antiviral therapy, symptomatic treatment, and the importance of vaccination. Early diagnosis and appropriate treatment of influenza play a crucial role in reducing complications and improving patient outcomes.

Keywords. Influenza, influenza virus, respiratory infection, epidemic, clinical manifestations, diagnosis, treatment, prevention, vaccination.



Kirish.

Gripp — oʻtkir respirator virusli infeksiya boʻlib, yuqori yuqumliligi, tez tarqalishi va ogʻir asoratlarni rivojlanish xavfi bilan ajralib turadi. Ushbu kasallik har yili mavsumiy epidemiyalar va ayrim hollarda pandemiyalar shaklida namoyon boʻlib, aholining barcha yosh guruhlariga, ayniqsa bolalar, keksalar va surunkali kasalliklarga ega shaxslarga jiddiy xavf tugʻdiradi. Gripp kasalligi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Grippning etiologiyasi ortomiksoviruslar oilasiga mansub A, B va C turdagi viruslar bilan bogʻliq boʻlib, ularning genetik oʻzgaruvchanligi kasallikning qayta-qayta uchrashiga va epidemik jarayonning murakkablashuviga sabab boʻladi. Kasallikning klinik kechishi oʻtkir boshlanishi, umumiy intoksikatsiya belgilari va yuqori nafas yoʻllari zararlanishi bilan tavsiflanadi. Ayrim hollarda gripp pnevmoniya, yurak-qon tomir va asab tizimi asoratlari bilan ogʻirlashishi mumkin.

Zamonaviy tibbiyotda grippni toʻgʻri tasniflash, etiologik omillarini aniqlash, klinik belgilari va kechishini chuqur oʻrganish samarali davolash va profilaktika choralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada gripp kasalligining tasnifi, etiologiyasi, klinik kechishi va davolash tamoyillari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Viruslar vaqt-vaqti bilan antigen tuzilishini oʻzgartirib turadi. Jumladan, A turining oʻzida antigen xususiyatiga qarab A (H₁N₁), A (H₃N₂) antigenli viruslar farq qilinadi. Oʻzbekistonda, asosan, A, ayrim hollarda, V turi uchraydi. Gripp viruslari juda beqaror; xona sharoitida bir necha soatdan soʻng yuqish ehtimoli yoʻqoladi, quyosh nuri taʼsirida tez nobud boʻladi. Past haroratda, ayniqsa xavo harorati 0° dan past boʻlganda virus uzoq saqlanadi. Shu sababli gripp kasalligi sovuq mavsumda koʻproq kuzatiladi. Dezinfeksiyalovchi vositalar (xloramin, xlorli ohak eritmalari, formalin, kislota va ishqorlar) taʼsirida viruslar tez nobud boʻladi. Isiriq tutuni ham gripp viruslarini oʻldiradi.

Gripp butun dunyoga tarqalgan, har 2 – 3 yilda gripp epidemiyasi qayd etiladi. Infeksiya manbai bemor, u aksirganida, yoʻtalganida, gaplashganila virus havo



zarrachalari va so‘lak tomchilari bilan atrof muhitga tarqaladi. Ayniqsa kasallikning dastlabki kunlarida virus bemor organizmidan ko‘plab ajralib yaqin atrofdagi odamlarga nafas yo‘llari orqali tushadi.

Aholining barcha tabaqalari (bolalar va keksalar ham) bu kasallikka moyil. Nimjon, turli xastaliklarga chalingan odamlarga gripp tez yuqadi. Jismonan baquvvat, chiniqqan odamlarda kasallik kam kuzatiladi.

Klinikasi

Kasallikning yashirin (inkubatsion) davri juda qisqa – bir necha soatdan 1 – 2 kungacha. Kasallik to‘satdan boshlanadi. Sog‘lom yurgan odam birdan mazasi qochib eti uvishadi, lohas bo‘ladi, harorati ko‘tarila boshlaydi. Oradan 1 – 2 soat o‘tgach, kasallikning asosiy alomatlari namoyon bo‘ladi. Isitma qisqa vaqt ichida 39 – 40° gacha ko‘tariladi, bemor junjikib, sovqotadi, qaltiraydi. Harorat ko‘tarilib bo‘lgach, bemorning badani qiziydi, betoqat bo‘ladi. A‘zoi badani, boshi, qo‘l-oyoq muskullari zirqirab og‘riydi. Ayniqsa, peshona va chakka sohasida og‘riq kuchli bo‘ladi. Ba‘zan bemorning boshi aylanib,]]ko‘z]]i tinadi. Ko‘z yoshlanadi, qizarib ketadi, ko‘z soqqasida og‘riq bo‘ladi. Burun „bitib“ qoladi, nafas olish qiyinlashadi, tomog‘i og‘riydi, og‘zi qaqraydi, quruq yo‘tal paydo bo‘ladi. Gripp yengil, o‘rtacha va juda og‘ir o‘tadi. Kasallik og‘irroq kechganda ko‘ngil aynishi, qusish, burun qonashi ham mumkin.

Gripp keksalar va bolalarda ancha og‘ir kechadi, organizmda ilgari mavjud bo‘lgan surunkali kasalliklar, odatda, zo‘rayadi, ba‘zan boshqa kasalliklar – zotiljam qo‘shiladi. Grippdan keyin o‘pka shamollashi, buyrak, miya pardalari nerv tugunlari va tolalarining yallig‘lanishi kabi asoratlar kuzatiladi.

Davolash

Gripp bilan og‘rigan bemorni kasalxonaga yotqizish shart emas, uyda alohida xonada yotgani ma‘qul. Faqat kasallik og‘ir kechgan hollarda bemor kasalxonaga yotqiziladi. Kasallikning og‘ir-yengil o‘tishidan qat‘i nazar, bemor yotishi lozim. Viruslarga ta‘sir etuvchi remantadin, interferon kabi dorilar faqat dastlabki kunlarda



qo'llanilsa yaxshi naf beradi. Shirchoy, limonli murabbo (ayniqsa malina, smorodinali), qatiq, qoqurum ichib terlash bemor ahvolini yaxshilaydi. Vrach tavsiyasi bilan og'riq oldiruvchi dorilar va antibiotiklar tavsiya etiladi;

Oldini olish. Gripp tarqalish ehtimoli bo'lgan kezlari maxsus profilaktika maqsadida gripp vaksinasi bilan emlash o'tkaziladi. Asosan bolalar va keksa yoshdagilar emlanadi; vaksina burunga tomiziladi. Grippga qarshi gammaglobulin qilinadi. Burunga profilaktika maqsadida interferon tomizib turish, oksolin moyi surtish, bemor bor xonada isiriq tutatib turish maqsadga muvofiq.

Sabablar

Kasallik burun, tomoq va o'pkaning shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Gripp ko'pincha qish faslida tarqaladi.

Grippning asosiy sabablari:

- kasallikning virusli qozg'atuvchilari mavjud bo'lgan havo orqali yuqishi;
- bemor bilan aloqada bo'lgan narsalar orqali yuqish.

Grippning belgilari

Gripp quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- yuqori harorat (40 darajagacha);
- bosh og'rig'i;
- bo'g'imlardagi og'riqlar;
- kuchli terlash;
- tomoq og'rig'i;
- ko'krak qismida og'riq;
- burun bitishi;
- burun shilliq qavatida quruqlik;
- yo'tal.

Agar grippning og'ir shakli bo'lsa:

- o'qchish va qusish;



- burundan qon ketishi;
- hushdan ketish;
- alahsirash.

Agar o'zingizda shunga o'xshash alomatlarni sezsangiz, darhol shifokorga murojaat qiling. Kasallikning oldini olish oqibatlari bilan kurashishdan osonroqdir.

Diagnostika

Grippga tashxis qo'yish uchun umumiy amaliyot shifokori bemorni quyidagi tekshiruvlarga jo'natishi mumkin:

- tomoq va burun bo'shlig'idan surtma;
- burun shilliq qavati epiteliysidan olingan surtma.

Grippni davolash

Grippni davolash usullari doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib boradi, chunki gripp virusining o'zi doimo mutatsiyaga uchrab, o'zini yangilaydi, shuning uchun oldingi vaksinalar foyda bermaydi. Kasallikni davolash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- harorat tushiruvchi dorilar;
- virusga qarshi dorilar;
- tomirlarni toraytiruvchi dorilar;
- balg'am ajratuvchi va yo'talga qarshi dorilar;
- multivitaminlar;
- o'simlik damlamasi va qaynatmalari bilan ingalyatsiya muolajasi;
- immunitetni ko'taruvchi dorilar;
- antigistamin dorilar.

Kasallik davrida bemorlar ko'proq vitaminlarni o'z ichiga olgan suyuqliklar va rezavor mevalardan tayyorlangan nastoykalarni ichishlari tavsiya qilinadi. Bolalarda grippni davolash uchun yotoqda dam olish tavsiya etiladi.

Xavf

Agar gripp o'z vaqtida davolanmas, quyidagi asoratlari kelib chiqishi mumkin:



- zotiljam;
- bronxit;
- bronxiolit;
- eshitish qobiliyatining buzilishi;
- burun shilliq qavatining atrofiyasi;
- Reye sindromi;
- meningit;
- ensefalit.

Grippning ko'p turlari intoksikatsiya, insult yoki yurak va o'pka yetishmovchiligi tufayli o'limga olib kelishi mumkin.

Xavf guruhi

Xavf guruhi:

- keksa yoshdagi odamlar;
- uch yoshgacha bo'lgan bolalar;
- maktabga boradigan bolalar;
- surunkali yurak yoki o'pka kasalligi bilan og'rigan bemorlar;
- homilador ayollar;
- gormonal fon, buyrak yoki qon aylanish tizimi kasalliklari bilan og'rigan bemorlar.

Oldini olish

Kattalar va bolalarda kasallikning oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilish lozim:

- grippga qarshi mavsumiy emlanish (mushak ichiga yuboriladigan inyeksiya yoki tomchi dori shaklida bo'ladi);
- maxsus dori vositalari bilan immunitetni mustahkamlash;
- vitamin C ichish;
- gripp avj olgan paytlarda odamlar ko'p to'planadigan joylarga bormaslik;
- uylarni doimiy ravishda shamollatib turish;



- bemor bilan bog‘lanish zarurati tug‘ilsa, himoya niqobini taqish.

Xulosa.

Gripp kasalligi keng tarqalgan va yuqori yuqumli infeksiya bo‘lib, uning o‘z vaqtida aniqlanmasligi va to‘g‘ri davolanmasligi og‘ir asoratlarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Kasallikning tasnifi va etiologiyasini chuqur bilish klinik tashxis qo‘yishda hamda individual davolash rejasini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Grippni davolashda kompleks yondashuv asosiy o‘rinni egallab, u antiviral preparatlar, simptomatik davolash, yotoq rejimi va immunitetni mustahkamlash choralarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, xavf guruhiga mansub bemorlarda erta tashxis va o‘z vaqtida davolash asoratlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Gripp kasalligining oldini olish va davolashda profilaktik tadbirlar, jumladan, emlash, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va aholining tibbiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar gripp bilan bog‘liq kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Jawetz E., Melnick J., Adelberg E. **Medical Microbiology**. McGraw-Hill Education, 2020.
- 2.Murray P.R., Rosenthal K.S., Pfaller M.A. **Medical Microbiology**. Elsevier, 2021.
- 3.World Health Organization (WHO). **Influenza (Seasonal)**.
- 4.Мусаева, У. А., & Авезова, Г. С. (2025). ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ТИЗИМИНИНГ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ. Modern Science and Research, 4(2), 287-296.
- 5.Маматкулов, Б., Авезова, Г. С., Абдурахимов, Б. А., & Адилова, З. У. (2019). Тоғ кон саноатидаги ишчилар касалланиши, улар саломатлигига ишлаб чиқариш омиллариининг таъсири. Тиббиётда янги кун, 4(28), 191-195.
- 6.Ahmedov, M., Green, J., Azimov, R., Avezova, G., Inakov, S., & Mamatkulov, B. (2013). Addressing the challenges of improving primary care quality in Uzbekistan:



a qualitative study of chronic heart failure management. Health policy and planning, 28(5), 458-466.

7. Mamatkulov, B. M., Mirzarakhimova, K. R., Urazaliyeva, I. R., Avezova, G. S., & Mirakhmedova, S. S. (2021). Risk Factors for Congenital Anomalies in Children and the Role of the Patronage Nurse. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(4), 8803-8815.

8. Абдурахимов, Б. А., Аликулова, Д. Я., & Аvezова, Г. С. (2018). Здоровье работающих горнорудной промышленности. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 111-112).

9. Аvezова, Г. С. (2020). Алкоголга карамлик ва унинг профилактикасига тизимли ёндашув. Тиббиётда янги кун-Илмий рефератив, маънавий-маърифий журнал.–2020, 4(32), 69-72.

10. Avezova, G. S., Beshimova, Z., & Avezova, G. S. (2021). Means and problems of forming a healthy lifestyle among the population. The American journal of medical sciences and pharmaceutical research, 3(05), 73-77.

11. Нурдинова, Г. У., Аvezова, Г. С., Бердиева, Д. Б., & Шеркузиева, Г. Ф. (2016). Эпидемиология сахарного диабета. International scientific review, (7 (17)), 93-95.

12. Alikulova, D. J., Mamatkulov, B. M., Ruzickova, I. S., & Avezova, G. S. (2015). Identification of features of immune status in adolescents with atopic asthma. Vestnik soveta molodykh uchenykh Chelyabinskoi oblasti, 3, 9-14.

13. Разикова, И. С., & Разикова, Г. Р. (2019). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АЛЛЕРГОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ УЗБЕКИСТАНА. In Аллергическое и иммунопатологические заболевания-проблема XXI века (pp. 23-24).

14. Разикова, И. С., & Разикова, Г. Р. (2019). Особенности инновационной диагностики хронических аллергодерматозов у лиц подросткового и молодого



возраста в Узбекистане. In Аллергическое и иммунопатологические заболевания-проблема XXI века (pp. 22-23).

15.Разикова, И. С., Бекмирзаева, Н. М., & Нормуродов, М. Э. (2025, November). ТЯЖЕЛЫЕ СЛУЧАИ ЛЕКАРСТВЕННОЙ АЛЛЕРГИИ: СТАТИСТИЧЕСКИЙ ОБЗОР В МЕЖДУНАРОДНЫХ БАЗАХ ДАННЫХ. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 17-noyabr 2025, pp. 152-154).

16. Разикова, И. С., & Носирова, Х. С. (2025, November). ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОСТХОЛЕЦИСТЭКТОМИЧЕСКОГО СИНДРОМА И ГИСТАМИНОЗА: ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ И КЛИНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 17-noyabr 2025, pp. 61-62).

17.Разикова, И. С., & Носирова, Х. С. (2025, November). РОЛЬ КИШЕЧНОЙ МИКРОБИОТЫ В ПАТОГЕНЕЗЕ ГИСТАМИНОЗА. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 17-noyabr 2025, pp. 95-96).

18.Разикова, И. С., & Айдарова, Н. П. (2025, November). РОЛЬ ГРИБКОВОЙ СЕНСИБИЛИЗАЦИИ ПРИ ТЯЖЕЛОЙ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЕ. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 17-noyabr 2025, pp. 165-165).

19. Разикова, И. С., & Носирова, Х. С. (2025, November). ВЛИЯНИЕ ИНГАЛЯЦИОННЫХ ГЛЮКОКОРТИКОСТЕРОИДОВ НА РАЗВИТИЕ ГАСТРОЭЗОФАГЕАЛЬНОЙ РЕФЛЮКСНОЙ БОЛЕЗНИ У ПАЦИЕНТОВ С БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ. In E-Conference platform (Vol. 1, No. 17-noyabr 2025, pp. 63-64).

20.Harrison T.R. **Harrison's Principles of Internal Medicine**. McGraw-Hill, 2022.

21.Tortora G.J., Funke B.R., Case C.L. **Microbiology: An Introduction**. Pearson, 2019.

22.www.who.int, www.cdc.gov, www.medscape.com